



Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



Journal of Academic Research and
Trends in Educational Sciences
(JARTES)

VOL. 2, ISSUE 1

ISSN 2181-2675

[www.ijournal.uz](http://ijournal.uz)

USE OF A NEW METHODOLOGY IN TEACHING THE UZBEK LANGUAGE TO FOREIGN STUDENTS

Ganiyeva Gulchehra Karshibaevna¹

EMU University

KEYWORDS

Uzbek language, modern technologies, mutual cooperation, universal methods, cultural studies

ABSTRACT

In teaching the Uzbek language, in addition to traditional methods, modern information and pedagogical technologies are effectively used. This article discusses the organization of classes using non-traditional methods of teaching the Uzbek language.

2181-2675/© 2024 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.10729827](https://doi.org/10.5281/zenodo.10729827)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Senior lecturer of the Department of Social Sciences of EMU University, Uzbekistan

XORIJZABON TALABALARGA O'ZBEK TILINI O'QITISHDA YANGI METODOLOGIYADAN FOYDALANISH

KALIT SO'ZLAR/
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

o'zbek tili, zamonaviy texnologiyalar, o'zaro hamkorlik, universal usullar, madaniyatshunoslik

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Hozirda o'zbek tilini o'qitishda an'anaviy usullardan tashqari zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan unumli foydalilmoxqda. Ushbu maqolada o'zbek tilini o'qitishda noan'anaviy usullardan foydalanib mashg'ulotlarni tashkil etish haqida fikr yuritilgan.

O'zbek tilini chet tili sifatida o'qitish uslubiyati juda muhim va uni bilish har bir o'zbek tili o'qituvchisi uchun zarur bo'lib, u darslarning samarali bo'lishini ta'minlashga va talabalarni o'zbek tilini o'rganishga undaydi.

Ko'pgina olimlar chet tillarini o'qitishning ma'lum usullari paydo bo'lishiga texnika va axborot yutuqlari, metodlarning rivojlanishi, psixologiya, psixolingvistika va pedagogika kabi fanlar bilan o'zaro uyg'unlashuvi ta'sir qiladi deb hisoblashadi. Olimlar doimiy ravishda barcha xorijiy tillarni o'qitishdagi ehtiyojni qondira oladigan yangicha usullarni yoki bitta universal usulni topish ustida izlanmoqdalar. Ammo hayot shuni ko'rsatmoqdaki, universal usullar mavjud emas, chunki jamiyatdagi ehtiyojlar axborot texnologiyalari va texnik innovatsiyalar ta'sirida o'zgarib borayotganligi sababli, bu chet tillarini, jumladan, o'zbek tilini o'qitishda ham o'z aksini topmoqda. Shu sababli, ba'zi usullar eskirgan bo'lsa, o'z-o'zidan ularning o'rnnini yangilari egallaydi, keyinroq esa bu yangi usullar ham o'z vazifasini o'tab bo'lgandek tuyuladi va uslubchilar yo yangilarini yaratadilar yoki eski usullarni yangi sharoitlarga moslashtirib o'zgartiradilar.

O'qituvchilar biror chet tilini o'rganayotganlarga o'sha mamlakatga borish yoki o'sha tilning egasi bo'lgan insonlar bilan muloqot qilish eng samarali usul ekanligini ta'kidlab kelishadi. Bu juda yaxshi yordam beradi, albatta. Lekin bunga o'zgacha yondashish ham mumkin. Ya'ni chet tilini, xususan, o'zbek tilini o'rganayotgan xorijzabon talaba o'zbek tilida sahnalashtiriladigan teatr tomoshasida yoki milliy qo'shiqlar festivalida ishtirok etishi orqali amaliy foya ko'rsatishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda madaniyatshunoslikka oid bo'lgan yoki muloqotning turli ko'rinishlarida o'rinni bo'lgan odob-axloq qoidalarini, o'zbeklarga xos urf-odatlarni o'zida aks ettirgan matnlarga talab kuchayadi. Madaniyatshunoslik metodologiyasi turfa madaniyatlarga xos bo'lgan baholash tamoyillarini yaxshi egallagan, fanni, bu o'rinda o'zbek tilini, o'qitish jarayonida pedagogik aloqaga kirishadigan bir necha tilni biluvchi kommunikativ shaxsni shakllantirishga qaratilgan.

Demak, madaniyatshunoslik metodologiyasi ta'lim dargohida o'rganilayotgan boshqa chet tillari uchun universal bo'lishi mumkin, chunki o'rganilayotgan chet tilining madaniyatiga xos ma'lumotlar, matnlar darslik va o'quv qo'llanmalaridan joy olgan va bu

o'quvchilar uchun qiziqarli bo'ladi.

Albatta, o'rganilayotgan tilning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda, alohida uslubiy ishlanmalar qilish talab etiladi. Bu o'qituvchiga turli metod va uslublarni, o'qitishning xilma-xil shakllarini uyg'unlashtirish imkonini beradi. Masalan, biror atoqli insonning hayoti va ijodini o'rganishda yoki geografik joy tasvirini berishda tarjima-grammatika metodini qo'llash mumkin. Audiovizual va audiolingvistika metodlarini bastakorning musiqasi yoki qo'shig'ini eshittirayotganda, kommunikativ metodni sahna ko'rinishlari va dialoglarda, rolli o'yinlarni tashkil etganda qo'llash mumkin. Bugungi kunda yangicha o'qitish metodlarini o'zida jamlagan zamonaviy ta'lim texnologiyalariga alohida e'tibor qaratilayotgani bunga misol bo'ladi. Loyiha usuli yoki hamkorlikda o'qitish, masofaviy ta'lim yoki interfaol o'qitish – bularning barchasi hozirda chet tilini o'qitish mashg'ulotlarida faol qo'llanilmoqda. Albatta, o'qituvchilar har bir chet tilini o'quvchilarning ona tilisi bilan solishtirganda o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishlari kerak, ammo dars shakllari va texnologiyalari o'quvchilarga tanish, o'xshash bo'lishi mumkin, bu esa o'qituvchiga ishni tushuntirishga u yoki bu tarzda ortiqcha vaqt sarflamaslik imkonini beradi. Bu o'zbek tilini xorijzabon talabalarga chet tili sifatida o'qitishning o'qituvchi tomonidan sinfda qo'llaniladigan madaniy jihatga asoslangan turli usullari hamda talabalarni rag'batlantirish va samarali bo'lishga yordam beradigan turli xil o'qitish texnologiyalarining uyg'unlashma shaklidir.

O'zbek tilini o'rgatish bo'yicha auditoriyadagi mashg'ulotlar bilan sinfdan tashqari olib boriladigan ishlar, to'garaklar faoliyati, o'rganilayotgan til asosidagi tadbirlar, olimpiada, festivallarda, boshqa tashkilot va muassasalar tomonidan tashkillashtiriladigan ommaviy tadbirlarda ishtirok etish kabilarni mohirona uyg'unlashtirib olib borish nafaqat o'zbek tilini samarali o'qitish borasida, balki boshqa chet tillarni o'qituvchi pedagoglar o'rtasida metodlar, texnologiyalar, o'qitish tizimidagi yangicha yondashuvlar, ma'lum tilni o'qitishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan individual muammolarning yechimini toppish kabi masalalarda ham hamkorlik sohasida katta foyda keltiradi. O'zbek tili kabi boshqa chet tillarini o'qitayotgan hamkasblar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, kuzatishlar, fikr almashishlar, o'zaro dars mashg'ulotlari jarayonini kuzatib borish, nima qilyapmiz, nimani yaxshiroq qilyapmiz, nima qilishni xohlaymiz – mana shular haqida o'rtoqlashib turish ishning samaradorligini oshiradi.

Biz, o'qituvchilar, o'quvchilarimiz imkon qadar ko'proq til va madaniyatlarni o'rganishga intilishlarini rivojlantirishga harakat qilishimiz lozim, ular o'z o'qituvchisining boshqa chet tilini o'rgatuvchi ustoz bilan o'zaro hamkorligini ko'rishsa, bunga guvoh bo'lishsa, bu ularda ikkita, uchta tilni o'rganish ishtiyоqini oshiradi. Agar biz globallashuv va internet rivojlangan dunyo bilan hamqadam yashashni istasak, nafaqat o'zaro hamkorlik qilishimiz, balki o'quvchilarimizni ham shunday hamkorlikka o'rgatishimiz kerak. Til va madaniyatlar asosidagi hamkorlik o'zbek tilini o'zga til vakillariga chet tili sifatida o'rgatish borasida eng yaxshi va samarali yo'llardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Mirolyubov A.A. Metodika obucheniya inostrannim yazikam: traditsii i sovremennost. Obninsk 2010.
2. Menglibayeva B.S. O'zbek tilini o'rgatishda pedagogik texnologiyalar. 2023.
3. To'xliyev B. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. Toshkent 2010.
4. Kh, B. G., & Sh, M. K. (2019, November). Enhancing ICT Technologies in Teaching, Learning and Assessment of foreign languages in Uzbekistan. In 2019 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT) (pp. 1-3). IEEE.
5. Mazgutova, D., Brunfaut, T., Muradkasimova, K., Khodjieva, R., Qobilova, G., & Yunusova, A. (2022). Evaluating co-production as a guiding philosophy for EAP teacher training course development. *Journal of English for Academic Purposes*, 57, 101098.
6. Muradkasimova, K. (2021). THE IMPORTANCE OF DEVELOPING TEACHERS' ASSESSMENT LITERACY COMPETENCE. *Philology Matters*, 2021(1), 172-187.
7. Muradkasimova, K. (2020). Enhancing Assessment Procedure by Applying Effective Tips. *InterConf*.
8. Искандарова, Ш. Т., Асадова, Г. А., Назарова, С. К., & Джалилова, Г. А. (2022). Охрана здоровья детей. Учебное пособие, 202.
9. Асадова, Г. А., Назарова, С. К., & Аминова, А. А. (2022). Диагностические и лечебные мероприятия перинатальной службы в обеспечении репродуктивного здоровья детей. *FORCIPE*, 5(S2), 50-52.
10. Асадова, Г. А. (2023). ОРГАНИЗАЦИЯ ПЛАНОВОЙ ИММУНИЗАЦИИ НАСЕЛЕНИЯ В КРИЗИСНЫХ СИТУАЦИЯХ. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 14, 30-33.
11. Kamilla, A., & Akmalovna, A. G. (2023). TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF TRADITIONAL AND MODERN ECOLOGICAL CULTURE OF THE UZBEK PEOPLE. *Academia Science Repository*, 4(6), 624-628.
12. Нурматов, Ж. Т. (2022). ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ ОБОСНОВАНИЕ РАЦИОНАЛЬНЫХ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ РАБОТЫ ПЕЧИ ДЛЯ ПЛАВЛЕНИЯ БАЗАЛЬТА. *Экономика и социум*, (12-2 (103)), 759-764.
13. Rashidova, R. K., Ahmedovich, K. A., Aliyev, T., Jiyanov, A. B., Turdieva, O. J., & Nurmatov, J. T. (2020). Heat Processing and Change of Proper Indicators of Basalts. *Land Science*, 2(2), p1-p1.
14. Нурматов, Ж. Т. (2022). ОСОБЫЕ СВОЙСТВА БАЗАЛЬТОВОГО МИНЕРАЛА. *Экономика и социум*, (12-2 (103)), 755-758.
15. Sunnatovich, S. A. (2022). SCIENTIFIC DESCRIPTION OF UZBEK REWARDS. *Oriental Art and Culture*, 3(1), 308-314.
16. Sharipova, U. A. (2023). FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF INTERNET MARKETING AT THE PRESENT STAGE. *World Economics and Finance Bulletin*, 23, 90-91.